

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGGIKA INSTITUTI



MA'NAVIYATNING ESTETIK ASOSLARI  
fanining o'quv dasturi

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim

**Magistratura mutaxassisligi:** 70112101 -Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)

<b>Фан/модуль коди</b> (Magistratura)		<b>Ўқув йили</b> 2022-2023	<b>Семестр</b> 3	<b>ECTS - Кредитлар</b> 5	
<b>Фан/модуль тури</b> Majburiy fan		<b>Таълим тили</b> Ўзбек		<b>Ҳафтадаги дарс соатлари</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Фаннинг номи</b>	<b>Аудитория машғулотилари (соат)</b>	<b>Мустақил таълим (соат)</b>	<b>Жами юклама (соат)</b>	
	<b>Ma'naviyatning estetik asoslari</b>	60 Ma'ruza - 30 Seminar - 30	60	120	

### FANNING MAZMUNI

<b>Fanni o'qitishdan maqsad</b>	Ushbu fan magistrant talabalarni ma'naviyatning estetik asoslari bilan tanishtirishni, ularning nafosat bo'yicha bilimlarini oshirishni, estetik qadriyatlarni qadrlashni va talabalarining estetik didlarini o'stirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.
<b>Fanning vazifasi</b>	Magistrant talabalar estetik tafakkurning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, Sharq ma'naviyatining estetik yo'nalishlari, temuriylar davri ma'naviyati, ma'naviy estetik uyg'onish borasida etarlicha bilim va tasavvurga ega bo'lishlari; Jadidlarning estetik qarashlarini, badiiy ijod jarayonini tahlil eta olishlari zarur bo'ladi.

### ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI) MODULLAR BO'YICHA MAVZULAR TAQSIMOTI:

1	1-modul
	<p><b>1-mavzu. Ma'naviyatning estetik asoslari” fanining predmeti, asosiy yo‘nalishlari</b> Ma'naviyat – faqat insongagina xos bo'lgan, uzluksiz harakatdagi jarayon ekanligi. “Ma'naviyatning estetik asoslari” fanining predmeti, asosiy yo'nalishlari. Ma'naviyatni estetik nuqtai nazardan tahlil etish. Ma'naviyat – insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'riliq sofdilliq vijdon, or-nomus, vatanparvarliq go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birligi, mushtaraklik kasb etgan majmui ekanligi.</p> <p><b>2-mavzu. Qadimgi dunyo estetik qarashlari</b> Estetik tafakkurning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o'rganish – estetika tarixining asosiy maqsadi. Sharq qadimgi dunyo estetikasining beshigi. Samir (Shumer), Babil va Misrda dastlabki estetik g'oyalarning shakllanishi; Markaziy Osiyo, Eron va qadimgi Hindiston mintaqalaridagi estetik qarashlar. “Avesto” ning falsafiy – estetik mohiyati. Qadimgi dunyo mumtoz estetikasi. Qadimgi Yunoniston faylasuflari Suqrot va Aflotunning estetik qarashlari; Arastuning estetik ta'limoti va uning qadimgi dunyo estetik tafakkurida tutgan o'rni. “Mimesis” (taqlid) va “katersis” (forig'lanish) tushunchalarining ahamiyati; Qadimgi Rumo estetikasi (Xoratsiy Flaq Tit Lukretsiy Kar, Boetsiy) Antik dunyo estetikasining jahon nafosat ilmi taraqqiyotiga ta'siri.</p> <p><b>3-mavzu. Islomgacha bo'lgan davr ma'naviyati va uning estetik rivojlanishi</b> Insoniyat tarixiy taraqqiyotining asosiy davrlari. 1)Ibtidoiy jamiyat: 2) Qadimgi dunyo: 3) O'rta asrlar: 4) Yangi davr. Arxeolog va paleontologlar. Tosh asri: 2) Bronza</p>

	<p>asri: 3) Temir asri deb ibtidoiy jamoa va qadimgi dunyoning 3 bosqichga bo'lib o'rganilishi.</p> <p>Islomgacha bo'lgan ma'naviyat bosqichi 3 davrni qamrab, ilk o'rta asrlarga ham o'tishi.</p>
2	<p style="text-align: center;"><b>2-modul</b></p> <p><b>4-mavzu. O'rta asrlar Sharq ma'naviyatining estetik yo'nalishlari</b></p> <p>Umumjahoniy dinlarning paydo bo'lishi va ularning san'at bilan o'zaro hamkorligi. San'at turlarining shakllanishi va taraqqiy etishida dinning ahamiyati.</p> <p>O'rta asrlar musulmon Sharqi estetikasida mashshoyyunlik va tabiiyyunlik yo'nalishlarining qaror topishi (Umar Xayyom, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy) va tasavvuf estetikasining vujudga kelishi (Fazzoliy, Rumi).</p> <p>Amir Temur va temuriylar davri - o'rta asrlar musulmon Sharqi san'ati taraqqiyotining oltin davri sifatida; Navoiy, Jomiy, Bobur, Husayn Bayqaroning estetik qarashlari.</p> <p>O'rta asrlarda buddaviylikning Sharqda keng yoyilishi va buddaviylik estetikasining alohida xususiyatlari; daochilik va konfutsiychilik estetik ta'limotlarining Xitoy san'atidagi o'rni, Chan – buddaxchilik estetikasi (Se Xe, Van Vey, Su Shi) Yapon estetikasi va uning asosiy tushunchalari. Xeyyan davri (IX XII asrlar) Neo teatri va Dzeami Motokiyoning teatr estetikasi; choy taomili estetikasi; tosh bog'lar estetikasi; gulchilik san'ati (ikebana).</p> <p style="text-align: center;"><b>5-mavzu. Islomda estetika nazariyasi</b></p> <p>Islom madaniyati, jumladan, islom estetikasining negizini tafsir an'anasi – tafsir – sharq kitoblari, jimjimador naqsh, sirli – sinoatli she'riyat, musiqa va boshqa san'at asarlari tashkil etadi; Qur'oni Karim va Muhammad payg'ambarimiz Hadisi Shariflari islom madaniyati va estetikasining manbasi - qon tomiri ekanligi. Islom estetikasi - Muqaddas So'zda ham, me'morchilikda ham, musiqada ham, soyasiz tasvir (miniatyura) da ushbu tamoyillarga suyanishi; Oqilona negiz – oqillik ifodachisi bo'lgan So'zga sig'inish. Tartibga solish tarzidagi uyg'unlik tamoyili. Bosqichma – bosqichlik tamoyili. Tasniflash tamoyili. Qonun - qoidalilik tamoyili.</p> <p style="text-align: center;"><b>6-mavzu. O'zbek xalqi ma'naviyati va estetik tafakkuri rivojlanishining tarixiy bosqichlari, asosiy xususiyatlari</b></p> <p>O'zbek xalqi eng avvalo qadimgi turkiy qabilalar va xalqlarining eng qadim zamonlardan boshlab turli davrlarda mazkur mintaqada yashagan ibtidoiy urug'-qabilalarning vorisi ekanligi: Ma'naviyat rivojlanishida din va falsafiy ta'limotlar asosiy mafkuraviy omil ekanligi. O'zbek xalqi ma'naviyati va estetik tafakkuri rivojlanishining tarixiy bosqichlari. O'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining yakuniy va oliy bosqichga aylanishi.</p>
3	<p style="text-align: center;"><b>3-modul</b></p> <p style="text-align: center;"><b>7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida ma'naviyat. Ma'naviy – estetik uyg'onish</b></p> <p>XIV-XV asrlar ma'naviyati tizimida ilmiy-falsafiy yo'nalishlar bilan bir qatorda badiiy-estetik tamoyillar ham keng tarkib topganligi.</p> <p>Bu sohadagi ulkan ishlar: Amir Temurning ma'naviyat haqidagi fikrlari va amalga oshirgan ishlari: me'morliq hunarmandchilik har xil san'atlarning bir – biriga o'tishi; Amir Temur va temuriylarning Markaziy Osiyo ma'naviyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi.</p> <p style="text-align: center;"><b>8-mavzu. Yangi davrdagi ma'naviyatning estetik qarashlari</b></p> <p>Ovro'pa ma'rifatparvarlari estetikasi (Byorq Hyum, Dmdro). XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi Olmon mumtoz estetikasi jahon estetik ilmining yuksak bosqichi</p>

	<p>sifatida (Kant, Shiller, Fixte, Shelming, Hegel).</p> <p>Ovro‘pa estetikasida noratsional yo‘nalishning qaror topishi (Kikegaard, Shopenxauer, Nittsshe).</p> <p>XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi rus mumtoz estetikasi (L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, V.Solov‘yov, N.Berdyayev). Eng yangi davr estetikasi. Zigmund Fraydning ruhiy taxlil ta‘limoti va fraydchilik nafasatshunosligi. Ekzistentsiyachilik hayot falasafasi va boshqa yo‘nalishlar estetikasi (QYung, E. Fromm, QYaspers, O.Shpengler).</p> <p><b>9-mavzu. XVII – XX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari ma‘naviyatning estetik yo‘nalishlari</b></p> <p><b>(Turkiston ma‘rifatchi – jadidlarning estetik qarashlari)</b></p> <p>Turkistonda jadidchilik ma‘rifiy – ijtimoiy harakatning vujudga kelishi. Ziyolilar orasida ma‘rifatchilik va estetik g‘oyalarning ommalashuvi. Jadidchilikning mohiyatan axloqiy – estetik oqim ekanligi. Furqat va Anbar otinning estetik qarashlari. Behbudiy, Hamza va S.Ayniyning zamonaviy san‘at turlari va janrlariga murojaati. Jadidlar teatrining vujudga kelishi. So‘z san‘ati va teatr estetikasi. Cho‘lpon va Fitratning ijodi – jadidchilik estetikasining yuksak pog‘onasi sifatida.</p>
4	4-modul
	<p><b>10-mavzu. Ma‘naviyatda estetikaning mushtarak mezoniy tushunchalari</b></p> <p>Ma‘naviyatda estetikaning mezoniy tushunchalari estetik ya‘ni nafasatli bilishning muhim omili sifatida.</p> <p>Nafosat – estetikaning keng qamrovli mushtarak mezoniy tushunchasi.</p> <p>Go‘zallik mezoniy tushunchasi. Go‘zallik haqidagi tasavvurning o‘zgaruvchanligi. Go‘zallikning san‘atda namoyon bo‘lishi.</p> <p>Ulug‘vorlik tushunchasi; tabiatdagi ulug‘vorlik ulug‘vorlikka son va miqyosning ta‘siri; ulug‘vorlik va tubanlik</p> <p>Fojiaviylik tushunchasi. Fojiaviy to‘qnashuv va uning asoslari: fojiaviylik va estetik ideal.</p> <p>Kulgilik mezoniy tushunchasi. Kulgili holat. Kulgi va uning inson hayotidagi o‘rni. Hazim hissi: Kulgilikning san‘atda namoyon bo‘lishi va uning ifoda shakllari (hajv, mutoyiba, kinoya, istehzo) Kulgi (komediya) – ma‘naviyatning san‘at janri sifatida. Ma‘naviyatda estetikaga oid mezoniy tushunchalarning o‘zaro aloqalari.</p> <p><b>11-mavzu. Ma‘naviyatda estetik ong va estetik faoliyat</b></p> <p>Ma‘naviyatda estetikaning qadriyatshunoslik tabiati: ma‘naviy estetik anglash (estetik ong) va uning asosiy unsurlari: estetik ehtiyoj va estetik munosabat: estetik baho va estetik ideal, estetik qarashlar va estetik nazariyalar, estetik did va tuyg‘u.</p> <p>Estetik faoliyat mehnatning o‘ziga xos turi sifatida. Mehnat va san‘atning o‘zaro aloqalari. San‘at va hunar. Xalq ommaviy san‘ati va dizayn.</p> <p>Atrof-muhitni go‘zallashtirishning muammolari. Tabiat – estetik faoliyat ob‘ekt hamkorligi va bu hamkorlikning dolzarb muammolari.</p> <p><b>12-mavzu. Ma‘naviyatda san‘atning estetik mohiyati, uning turlari</b></p> <p>Ma‘naviyatda san‘atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati san‘atning fandan farqi va ularning umumiy jihatlari: har xil san‘at turlarining paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi tarix taqozosi. San‘atning turlarga bo‘linishi, ularning o‘zaro aloqadorligi va nisbiy mustaqilligi.</p> <p>San‘atda hayotiy haqiqat va shartlilik: unda milliy ruh va axloq: san‘at va din: san‘at va siyosat : san‘at va falsafa: san‘at va mafkura. San‘at sotsiologiyasi va psixologiyasi.</p>
5	5-modul
	<b>13-mavzu. Ma‘naviyatda badiiy ijod jarayoni va xususiyatlari</b>

	<p>Badiiy ijod ma'naviy estetik faoliyatning bir turi sifatida. Badiiy ijod jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy qobiliyat, iste'dod va daho. Iste'dod va mehnat. Foyaviy niyat va ehtiros tasavvur, xayolot va fahm (intulsiya)ning ahamiyati. San'atkorning jamiyatdagi o'rni. San'atkor va zamon: San'atkor va tarix: San'atkor va milliy g'oya: San'atkor va mafkura: San'atkorning mafkurachilik xususiyati.</p> <p><b>14-mavzu. Ma'naviyatda estetik tarbiya va uning zamonaviy yo'nalishlari</b> Shaxs kamolotida estetik tarbiyaning ahamiyati. Estetik tarbiyaning hozirgi zamondagi xilma-xil yo'nalishlari va vositalari. San'at – estetik tarbiyaning asosiy vositasi sifatida: estetik tarbiyaning ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'unligi muammosi.</p> <p><b>15-mavzu. Xalq estetik ehtiyoj va badiiy yuksaltirishning dolzarbligi</b> Estetik taraqqiyot va unda badiiy havaskorlik hamda san'at targ'ibotining mavqei. Xalq estetik ehtiyoji va badiiy didini yuksaltirishning dolzarbligi: ommaviy madaniyat hodisasi va uning yoshlar estetik tarbiyasiga salbiy ta'siri.</p>
--	--

#### 4.3. MODULLAR BO'YICHA SEMINAR MASHG'ULOT MAVZULARI VA REJALARI

№	Seminar mashg'ulot mavzulari va rejalari	Soat
<b>1-MODUL.</b>		
1	<p><b>1- mavzu: “Ma'naviyatning estetik asoslari” fanining predmeti, asosiy yo'nalishlari</b> <b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ma'naviyat – faqat insongagina xos bo'lgan, uzluksiz harakatdagi jarayon.</li> <li>2. “Ma'naviyatning estetik asoslari” fanining predmeti, asosiy yo'nalishlari.</li> <li>3. Ma'naviyatni estetik nuqtai nazardan tahlil etish.</li> <li>4. Ma'naviyat – insonning asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birligi.</li> </ol>	2
2	<p><b>2- mavzu: Qadimgi dunyo estetik qarashlari</b> <b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sharq qadimgi dunyo estetikasining beshigi. Samir (Shumer), Babil va Misrda dastlabki estetik g'oyalarning shakllanishi.</li> <li>2. Markaziy Osiyo, Eron va qadimgi Hindiston mintaqalaridagi estetik qarashlar.</li> <li>3. “Avesto” ning falsafiy – estetik mohiyati.</li> <li>4. Antik dunyo estetikasining jahon nafosat ilmi taraqqiyotiga ta'siri.</li> </ol>	2
3	<p><b>3- mavzu: Islomgacha bo'lgan davr ma'naviyati va uning estetik rivojlanishi</b> <b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining asosiy davrlari.</li> <li>2. Qadimgi dunyoning 3 bosqichga bo'lib o'rganilishi.</li> <li>3. Islomgacha bo'lgan ma'naviyat bosqichlari.</li> <li>4. Islomgacha bo'lgan davr ma'naviyatining estetik rivojlanishi.</li> </ol>	2
<b>2-MODUL.</b>		
1	<p><b>4- mavzu: O'rta asrlar Sharq ma'naviyatining estetik yo'nalishlari</b> <b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. San'at turlarining shakllanishi va taraqqiy etishida dinning ahamiyati.</li> <li>2. O'rta asrlar musulmon Sharqi estetikasida mashshoyunlik va tabiiyunlik yo'nalishlarining qaror topishi</li> <li>3. Amir Temur va temuriylar davri - o'rta asrlar musulmon Sharqi san'ati taraqqiyotining oltin davri sifatida.</li> </ol>	2

	<p>4. O'rta asrlarda buddaviylikning Sharqda keng yoyilishi va buddaviylik estetikasining alohida xususiyatlari;</p> <p>5. Yapon estetikasi va uning asosiy tushunchalari.</p>	
2	<p style="text-align: center;"><b>5- mavzu: Islomda estetika nazariyasi</b></p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>1. Islom estetikasining negizlari.</p> <p>2. Qur'oni Karim va Muhammad payg'ambarimiz Hadisi Shariflari islom madaniyati va estetikasining manbasi - qon tomiri.</p> <p>3. Islom estetikasi tamoyillari.</p>	2
3	<p style="text-align: center;"><b>6- mavzu: O'zbek xalqi ma'naviyati va estetik tafakkuri rivojlanishining tarixiy bosqichlari, asosiy xususiyatlari</b></p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>1. O'zbek xalqi eng avvalo qadimgi turkiy qabilalar va xalqlarining vorisi.</p> <p>2. Ma'naviyatning rivojlanishida din va falsafiy ta'limotlarning o'rni.</p> <p>3. O'zbek xalqi ma'naviyati va estetik tafakkuri rivojlanishining tarixiy bosqichlari.</p> <p>4. O'zbek xalqi ma'naviyati rivojlanishining yakuniy va oliy bosqichga aylanishi.</p>	2
<b>3-MODUL.</b>		
1	<p style="text-align: center;"><b>7- mavzu: Amir Temur va Temuriylar davrida ma'naviyat. Ma'naviy – estetik uyg'onish</b></p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>1. XIV-XV asrlar ma'naviyati tizimida badiiy-estetik tamoyillar.</p> <p>2. Amir Temurning ma'naviyat haqidagi fikrlari va amalga oshirgan ishlari.</p> <p>3. Amir Temur va temuriylarning Markaziy Osiyo ma'naviyati taraqqiyotiga qo'shgan hissalar</p>	2
2	<p style="text-align: center;"><b>8- mavzu: Yangi davrdagi ma'naviyatning estetik qarashlari</b></p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>1. Ovro'pa ma'rifatparvarlari estetikasi.</p> <p>2. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi Olmon mumtoz estetikasi.</p> <p>3. Ovro'pa estetikasida noratsional yo'nalishning qaror topishi.</p> <p>4. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi rus mumtoz estetikasi</p> <p>5. Eng yangi davr estetikasi.</p>	2
3	<p style="text-align: center;"><b>9- mavzu: XVII – XX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatning estetik yo'nalishlari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>(Turkiston ma'rifatchi – jadidlarning estetik qarashlari)</b></p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>1. Turkistonda jadidchilik ma'rifiy – ijtimoiy harakatning vujudga kelishi.</p> <p>2. Ziyolilar orasida ma'rifatchilik va estetik g'oyalarning ommalashuvi.</p> <p>3. Furqat va Anbar otinning estetik qarashlari. Behbudiy, Hamza va S.Ayniyning zamonaviy san'at turlari va janrlariga murojaati.</p> <p>4. Jadidlar teatrining vujudga kelishi. So'z san'ati va teatr estetikasi. Cho'lpon va Fitratning ijodi – jadidchilik estetikasining yuksak pog'onasi sifatida.</p>	2
<b>4-MODUL.</b>		
1	<p style="text-align: center;"><b>10- mavzu: Ma'naviyatda estetikaning mushtarak mezoniy tushunchalari</b></p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>1. Ma'naviyatda estetikaning keng qamrovli mushtarak mezoniy tushunchalari.</p> <p>2. Go'zallik va Ulug'vorlik tushunchasi, ulug'vorlik va tubanlik</p> <p>3. Fojiviylik tushunchasi. Fojiviy to'qnashuv va uning asoslari: fojiviylik va estetik ideal.</p> <p>4. Kulgililik mezoniy tushunchasi. Kulgi va uning inson hayotidagi o'rni.</p>	2

2	<p align="center"><b>11- mavzu: Ma'naviyatda estetik ong va estetik faoliyat</b></p> <p align="center">Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ma'naviyatda estetikaning qadriyatshunoslik tabiati</li> <li>2. Ma'naviy estetik anglash (estetik ong) va uning asosiy unsurlari.</li> <li>3. Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi sifatida.</li> <li>4. Tabiat – estetik faoliyat ob'ekt hamkorligi va bu hamkorlikning dolzarb muammolari.</li> </ol>	2
3	<p align="center"><b>12- mavzu: Ma'naviyatda san'atning estetik mohiyati, uning turlari</b></p> <p align="center">Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ma'naviyatda san'atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati.</li> <li>2. San'atning fandan farqi va ularning umumiy jihatlari.</li> <li>3. San'atning turlarga bo'linishi, ularning o'zaro aloqadorligi va nisbiy mustaqilligi.</li> <li>4. San'atda hayotiy haqiqat va shartlilik.</li> <li>5. San'at sotsiologiyasi va psixologiyasi.</li> </ol>	2
<b>5-MODUL.</b>		
1	<p align="center"><b>13- mavzu: Ma'naviyatda badiiy ijod jarayoni va xususiyatlari</b></p> <p align="center">Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Badiiy ijod ma'naviy estetik faoliyatning bir turi sifatida.</li> <li>2. Badiiy ijod jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.</li> <li>3. Badiiy qobiliyat, iste'dod va dahol. Iste'dod va mehnat.</li> <li>4. San'atkorning jamiyatdagi o'rni.</li> </ol>	2
2	<p align="center"><b>14- mavzu: Ma'naviyatda estetik tarbiya va uning zamonaviy yo'nalishlari</b></p> <p align="center">Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shaxs kamolotida estetik tarbiyaning ahamiyati.</li> <li>2. Estetik tarbiyaning hozirgi zamondagi xilma-xil yo'nalishlari va vositalari.</li> <li>3. San'at – estetik tarbiyaning asosiy vositasi sifatida.</li> <li>4. Estetik tarbiyaning ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'unligi muammosi.</li> </ol>	2
3	<p align="center"><b>15- mavzu: Xalq estetik ehtiyoj va badiiy yuksaltirishning dolzarbligi</b></p> <p align="center">Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Estetik taraqqiyot va unda badiiy havaskorlik hamda san'at targ'ibotining mavqei.</li> <li>2. Xalq estetik ehtiyoji va badiiy didini yuksaltirishning dolzarbligi</li> <li>3. Ommaviy madaniyat hodisasi va uning yoshlar estetik tarbiyasiga salbiy ta'siri.</li> </ol>	2
	<b>Жами</b>	<b>30</b>
<p align="center"><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p>Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;</li> <li>- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;</li> <li>- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;</li> <li>- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;</li> <li>- fanga oid statistik ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;</li> <li>- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;</li> </ul>		

<p>- faol va muammoli o‘qitish usulidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari</p>
<p style="text-align: center;"><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>1. Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Маънавиятнинг ахлоқий асослари ва маънавиятнинг эстетик асосларининг o‘xshashliklari va farqlari to‘g‘risida <b>tasavvurga ega bo‘lishi;(bilim)</b></li> <li>• маънавиятнинг эстетик асосларининг konseptual-metodologik asoslari va унниг o‘ziga xos xususiyatlari, маънавиятшунослик bilan bog‘liq asosiy kasbiy atamalar va toifalar, tamoyillar va tasniflar<b>bilishi va ulardan foydalana olishi;(ko‘nikma)</b></li> </ul>
<p style="text-align: center;"><b>– VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ma‘ruzalar;</li> <li>– interfaol keys-stadilar;</li> <li>– seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>– guruhlarda ishlash;</li> <li>– taqdimotlarni qilish;</li> <li>– individual loyihalar;</li> <li>– jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p style="text-align: center;"><b>– VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg‘ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma‘ruza mashg‘ulotlari o‘quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o‘tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta‘lim topshirig‘i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to‘plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Yakuniy nazorat</b></p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o‘tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o‘zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to‘plagan talabalar fanni o‘zlashtirgan hisoblanadi.</p> <p>Fanning ishchi dasturi O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2011 yil MD-5A111601 -2.06 son bilan ro‘yxatdan o‘tgan va tasdiqlangan.</p>



**Tuzuvchi:**

**H.Ashirmatov.** falsafa doktori (PhD), dotsent

**Taqrizchilar:**

**Turatov Sh. Jizzax PI,** Ijtimoiy fanlar kafedrası kata o`qituvchisi f.d.(PhD)

**M.Saidov** falsafa fanlari nomzodi, JDPI Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi kafedrası dotsenti





